

O‘zbekiston Respublikasi
Qishloq xo‘jaligi vazirining
2023 yil 28 fevraldagi
31-sonli buyrug‘iga
I-ILOVA

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish

D A S T U R I

I. Umumiy qoidalar

1. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturi (keyingi o‘rinlarda – Dastur deb ataladi) xodimlari faoliyatida korrupsiyaviy huquqbazarliklarga murosasizlik va ularni sodir etishga yo‘l qo‘ymaslikni, korrupsiyaga qarshi kurashish va korrupsiyaning oldini olishga doir chora-tadbirlarni amalga oshirishni nazarda tutadi.

2. O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi (keyingi o‘rinlarda - Vazirlik deb ataladi) tizimidagi xodimlari faoliyatida korrupsiyaviy huquqbazarliklarga murosasizlik va ularni sodir etishga yo‘l qo‘ymaslik, korrupsiyaga qarshi kurashish mexanizmlarini va korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha ichki normativ hujjatlarni ishlab chiqish, tizimda manfaatlar to‘qnashuvini boshqarish, korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha samarali tizimni yaratish va amalga oshirish, korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va bartaraf etish Vazirlikning asosiy maqsadlari hisoblanadi.

3. Dastur Vazirlikning ichki hujjati sifatida yuqorida qayd etilgan asosiy maqsadlarga erishish uchun Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalari faoliyatida korrupsiya bilan bog‘liq huquqbazarliklarni profilaktika qilish va ularga barham berishga qaratilgan vazifalar va yo‘nalishlarni belgilab beradi.

II. Dasturning asosiy maqsadi va vazifalari

4. Vazirlik tizimida qonuniylikni ta‘minlash, xodimlarda korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, manfaatlar to‘qnashuviga yo‘l qo‘ymaslik, korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni sodir etganlik uchun javobgarlikning muqarrarligini ta‘minlash hamda korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi munosabatlarni tartibga solish Dasturning asosiy maqsadidir.

5. Quyidagilar Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashishning asosiy vazifalari hisoblanadi:

Korruptsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tegishli qonunchilik hujjatlari va ichki idoraviy hujjatlarni amaliyotga joriy etish, ichki idoraviy hujjatlarni zaruratga qarab yangilab borilishini ta‘minlash;

Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy mexanizmlarni joriy etish;

Vazirlik tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish;

Vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardor qilish, ularning korrupsiyaga qarshi kurashishga oid huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish;

Vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari samarali faoliyatini tashkil etish, ularni maxsus o'quv kurslarida malaka oshirishlarini ta'minlash;

Vazirlik tizimida korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o'z vaqtida aniqlash, ularga chek qo'yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish;

Vazirlik tizimida manfaatlar to'qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga riosa etilishi yuzasidan monitoring o'tkazish;

Vazirlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaning oldini olishga doir targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish;

Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalari faoliyatining jamoatchilik oldida ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash.

III. Dasturning asosiy yo'nalishlari

1-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha tegishli qonunchilik hujjatlari va ichki idoraviy hujjatlarni amaliyotga joriy etish, ichki idoraviy hujjatlarni zaruratga qarab yangilab borilishini ta'minlash

6. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ISO 37001:2016 xalqaro standarti talablari doirasida ishlab chiqilgan korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlarni amaliyotga joriy etish;

7. Korrupsiyaga qarshi kurashish sohasidagi O'zbekiston Respublikasining qonunchiliga hamda tashkilotning korrupsiyani oldini olish va unga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy hujjatlariga Vazirlik tizimida riosa qilinishi yuzasidan monitoring o'tkazish;

8. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tizimi va korrupsiyaning oldini olish bo'yicha tegishli ichki idoraviy hujjatlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish;

9. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligi bilan hamkorlikda Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha maqsadli tarmoq va hududiy dasturlarni ishlab chiqish;

10. Vazirlik tizimi tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni tartibga soluvchi

normativ-huquqiy hujjatlarni xatlovdan o'tkazish va tahlil qilish. Bunda korrupsiyaviy bo'shliqlari mavjud bo'lgan normalarni bartaraf etish bo'yicha takliflar ishlab chiqish.

2-bob. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy mexanizmlarni joriy etish

11. Vazirlikning Korrupsiyaga qarshi kurashish kengashini tuzish, uning vazifalari va vakolatlarini belgilash;

12. Vazirlik rasmiy veb-saytida hamda ijtimoiy tarmoqlarida Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalaridagi vakant ish o'rnlari hamda nomzodlarga qo'yilgan talablar haqidagi ma'lumotlarni doimiy joylashtirib borish;

13. Vazirlik tizimida korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari (rasmiy veb-sayt, ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalar, ishonch telefoni, elektron manzil, telegram bot) ni uzuliksiz ishlashini ta'minlash;

14. Vazirlikning rasmiy veb-saytida jismoniy va yuridik shaxslar uchun xodimlar ustidan shikoyat qilish imkonini beruvchi maxsus sahifa ochish;

15. Vazirlikning rasmiy veb-saytida va boshqa OA Vlarda korrupsiya haqida xabar berishga mo'ljallangan aloqa kanallari haqidagi ma'lumotlarni va korrupsiyaga qarshi ichki idoraviy hujjatlarni muntazam joylashtirib borish;

16. Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalari faoliyatidagi korrupsiyaviy holatlarni va xavf-xatarlarni aniqlash maqsadida aholi va xodimlar orasida telegram mesenjeridagi vazirlikning "@UzAgroAnticorruptionBot" telegram boti, "@uzagroministry" telegram kanali va "www.agro.uz" rasmiy veb sayti orqali onlayn so'rovnomalarni tashkil etish;

17. Vazirlik tizimi mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari tomonidan o'z mansab yoki xizmat majburiyatlarining bajarilishi samaradorligi mezonlarini va uning sifatini baholash tizimlarini joriy etish;

18. Vazirlik tizimi xodimlarining faoliyatini jismoniy va yuridik shaxslar tomonidan onlayn tartibda baholash tartibini joriy etish bo'yicha takliflar tayyorlash;

19. Korrupsiyaga oid xatti-harakatlar haqida xabar bergan va korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni fosh qilishga hissa qo'shgan shaxslarni rag'batlantirish tartibini joriy etish yuzasidan takliflar ishlab chiqish (minnatdorchilik maktubi, pul mukofoti);

20. Rivojlangan davlatlar tajribasini o'rgangan holda Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki idoraviy mexanizmlarni joriy etish.

3-bob. Vazirlik tizimidagi korrupsiyaviy xavf-xatarlarni aniqlash, baholash va ularni kamaytirish bo'yicha tadbirlarni amalga oshirish

21. Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari

hamda muassasalari faoliyatini kompleks tahlil qilish orqali korrupsiya xavf-xatariga eng ko‘p moyil bo‘lgan funksiya va lavozimlar belgilab olish;

22. Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalarining korrupsiyaviy xavf-xatarlar xaritalarini ishlab chiqish hamda ushbu xavf xatarlar xaritasi asosida Vazirlik tizimi faoliyati bo‘yicha korrupsiyaviy xavf-xatarlarning birlashgan xaritasini ishlab chiqish;

23. Aniqlangan korrupsiyaviy xavf-xatarlarni minimallashtirish bo‘yicha samarali oldini olish chora-tadbirlar dasturini ishlab chiqish;

4-bob. Vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashishga oid ichki tartib-taomillardan xabardor qilish, ularning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish

24. Vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga tegishli ichki idoraviy hujjatlar bilan tanishib chiqishlariga oid bilim va ko‘nikmalarini oshirish tizimini yaratish;

25. Vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha bilim va ko‘nikmalarini oshirish maqsadida onlayn va oflays o‘quv seminarlari, treninglar, brifinglar, davra suxbatlarini tashkil etish;

26. Vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarning ish faoliyatida qonunchilik xujjatlari, korrupsiyaga qarshi kurashish sohasiga tegishli normativ hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlarning talablari hamda tartib-taomillariga rioya etilishlarini nazorat qilish;

27. Vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlarni korrupsiyaga qarshi kurashish bo‘yicha tayyorlash va qayta tayyorlashga oid maxsus o‘quv dasturlari va qo‘llanmalarini ishlab chiqish.

5-bob. Vazirlik tizimida korrupsiyaga oid huquqbazarliklarni o‘z vaqtida aniqlash, ularga chek qo‘yish, ularning oqibatlarini, ularga imkon beruvchi sabablar va shart-sharoitlarni bartaraf etish

28. Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalarida tomonidan ko‘rsatiladigan agro xizmatlarni to‘liq elektron shaklga o‘tkazish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

29. Vazirlik tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida korrupsiyaning holatini, uning jihatlarini, ko‘lamini, o‘sish sur’atlarini hamda tendensiyalarini, shuningdek korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida olib borilayotgan chora-tadbirlarning samaradorligini Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalari kesimida o‘rganish yuzasidan tadqiqotlar o‘tkazish;

30. Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari

hamda muassasalarida mansabi yuqoriq bo‘lgan xodimning shaxsiy ishlarini (shaxsiy ishlarni bitirtirishi, farzandini ta’lim muassasasidan olib keltirishi va h.k.) amalga oshirishi uchun o‘zidan pastroq lavozimda bo‘lgan xodimga ko‘rsatma bergenligi yuzasidan monitoring o‘tkazish rejasini ishlab chiqish va natijasi bo‘yicha tegishli mansabdar shaxslarni javobgarlikka tortish;

31. Vazirlik tizimida amalga oshirilayotgan davlat xaridlari bo‘yicha har bir tovar pozitsiyasi kesimida xarid narxlarini tahlil qilib borish, davlat xaridlarni amalga oshirilishida “Davlat xaridlari to‘g’risida”gi Qonun va boshqa tegishli normativ hujjatlar talablariga rioya etilayotganligi yuzasidan monitoring o‘tkazish;

32. Davlat xaridlarni amalga oshirishda korrupsiya xavflarini minimallashtirish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish, bunda amalga oshirilayotgan davlat xaridlari yuzasidan (tanlov va tender savdolari bo‘yicha) Vazirlikning Ichki audit, komplayens nazorat va korrupsiyaga qarshi kurash boshqarmasiga doimiy ma’lumot kiritib borilishini nazarda tutish;

33. Vazirlik tizimi faoliyatida korrupsiyaga qarshi kurashishda xalqaro tashkilotlarning hisobot tahlillari va tavsiyalarini o‘rganish, ular bilan korrupsiyaga qarshi kurashish yuzasidan hamkorlikni yo‘lga qo‘yish bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

34. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar, qayta ishlash korxonalari, tayyorlash va sotish tashkilotlari va Vazirlik, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalari o‘rtasidagi qishloq xo‘jaligida moliyaviy munosabatlar (kreditlash, lizing, subsidiyalash va dotatsiya berish) tizimini ochiqlik va shaffofligini ta‘minlash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

35. Vazirlik tomonidan Qoraqalpog‘iston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo‘jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalarida o‘rganish o‘tkazishda korruption holatlarni oldini olish yuzasidan takliflar tayyorlash. Bunda o‘rganishni kollegial tartibda (yakka tartibda emas) o‘tkazilishini va o‘rganish o‘tkazilayotgan tashkilot xodimlari bilan birga umumiyligi ovqatlanish joylariga borishni taqilashni nazarda tutish.

6-bob. Vazirlik tizimida manfaatlar to‘qnashuvini hal qilishning tashkiliy-huquqiy asoslarini takomillashtirish, ularga rioya etilishi yuzasidan monitoring o‘tkazish

36. Vazirlik tizimida manfaatlar to‘qnashuvi alomatlari bilan tavsiflangan vaziyatlarni tahlil qilish va baholash;

37. Vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlar o‘rtasida nepotism, (qarindoshchilik), shaferlik, favaritizm, kronizm, mahalliychilik va urug‘-aymoqchilik mayjudligi holatlari yuzasidan monitoring o‘tkazish. Bunda xodimlarning ma’lumotnomalari asosida tahlil qilishni nazarda tutish;

38. Vazirlik tizimida faoliyat yuritayotgan xodimlar haqidagi umumiy ma’lumotlarni (C/V-ma’lumotnama, yaqin qarindoshlari to‘g’risidagi ma’lumotlar

va x.k) jamlovchi ichki idoraviy platformani ishlab chiqish yuzasidan takliflar ishlab chiqish;

39. Manfaatlar to'qnashuvining mavjudligi yoki mavjud emasligi haqidagi arizalarni xodimlar tomonidan to'liq va to'g'ri to'ldirilishini ta'minlash choralarini ko'rish.

7-bob. Vazirlik tizimidagi korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari samarali faoliyatini tashkil etish, tuzilma xodimlarini maxsus o'quv kurslarida malaka oshirishlarini ta'minlash

40. Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasi xodimlarini zarur resurslar va boshqa moddiy-texnik baza bilan ta'minlash choralarini ko'rish;

41. Korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlari uchun maxsus xalqaro va mahalliy ekspertlarni taklif qilgan holda seminar treninglar, maxsus o'quv kurslarini tashkil etish;

42. O'zbekiston Respublikasi Bosh prokururaturasi, Korrupsiyaga qarshi kurashish agentligi va Adliya vazirligi bilan hamkorlikda korrupsiyaga qarshi ichki nazorat tuzilmalari xodimlarini maxsus o'quv kurslarida malaka oshirishlarini tashkil etish;

43. Vazirlik tarkibiy tuzulmasidagi Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha ichki nazorat tuzilmasining tashkilotda korrupsiyaga qarshi kurashish faoliyati yuzasidan xar chorak yakuni bilan hisobotlari va ma'ruzalarini tinglash hamda ularga baho berish, tegishli normativ hujjatlar va ichki idoraviy hujjatlar talablari ijrosini ta'minlamasdan, mas'ulyatsizlikka yo'l qo'yan tuzilma xodimlarni intizomiy javobgarlik tortish.

8-bob. Vazirlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirish, korrupsiyaning oldini olishga doir targ'ibot tadbirlarini amalga oshirish

44. Vazirlik tizimida korrupsiyaga nisbatan murosasiz munosabatni shakllantirishga qaratilgan, xodimlarning huquqiy ongi va huquqiy madaniyatini yuksaltirish bo'yicha axborot-tahliliy materiallarni tayyorlash va tarqatish.

45. Vazirlik tizimi xodimlariga korrupsiyaning jamiyat va mamlakat ravnaqi uchun o'ta salbiy illat ekanligini targ'ib qilishga qaratilgan o'quv materiallari tayyorlash va tarqatish.

46. Korrupsiyaga qarshi kurashish mavzusi doirasida kamida 3 ta ijtimoiy videorolik tayyorlash hamda korrupsiya, halollik, to'g'rilik, qonunga hurmat,adolat tantanasi mavzularida targ'ibot materiallari, didaktik materiallar, multiplikatsion filmlar tayyorlash.

47. Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalarida "Korrupsiyaga qarshi kurashish oyligi" tadbirlarini tashkil etish.

9-bob. Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalari faoliyatining jamoatchilik oldida ochiqligi, shaffofligi va hisobdorligini ta'minlash

48. Vazirlikning umumiy foaliyati to'g'risidagi choraklik va yillik ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda joylashtirib borish;

49. Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalarining moliya-xo'jalik faoliyati bilan bog'liq ma'lumotlarni va davlat xaridlari bilan bog'liq shartnomalar ro'yxatini rasmiy veb-saytlarda e'lon qilib borish;

50. Vazirlikning byudjet jarayonining ochiqligini ta'minlashga oid ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda joylashtirish;

51. Korrupsiya holatlarini barvaqt aniqlash va ularning oldini olishda ochiqlik tamoyillaridan foydalanish holati bo'yicha ma'lumotlarni rasmiy veb-saytda joylashtirish;

52. Korrupsiya faktlariga doir murojaatlarni ko'rib chiqish natijalari haqidagi choraklik va yillik hisobotni har kvartal yakuni bilan rasmiy veb-saytga muntazam joylashtirib borish.

IV. Dasturning qabul qilinishidan kutilayotgan natijalar

53. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tizimida korrupsiyaga qarshi kurashish dasturini amalga oshirishdan quyidagi natijalar kutilmoqda:

Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalari faoliyatining ochiqligiga erishilishi va ularning zimmasiga yuklatilgan vazifalar ijrosiga nisbatan xodimlar mas'uliyatining yanada ortishi;

Vazirlik tizimida korrupsiya, manfaatlar to'qnashuvi va boshqa huquqbuzarliklarning oldi olinishi;

Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalari mansabdor shaxslari va boshqa xodimlari faoliyati samaradorligi yangi mezonlar asosida baholanishi;

Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalari xodimlarining kasbiy hamda xizmatdan tashqari faoliyatdagi odob-axloqining yuksalib borishi;

Vazirlik, Qoraqalpog'iston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar qishloq xo'jaligi boshqarmalari, tizim tashkilotlari hamda muassasalari faoliyatida korrupsiyaning oldini olishga doir tadbirlarning samaradorligini ta'minlashi.